



Javlon Jovliyev hikoyalarida mahoratning ko‘zga tashlanishi

Abdumalikova Zarifa

Samarqand davlat universiteti Filologiya fakulteti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Bu maqolada Javlon Jovliyevning ayrim hikoyalariga e’tibor qaratilib, ularning badiiy-g‘oyaviy jihatlari tahlilga tortildi. Shu bilan birgalikda, yozuvchining hikoya yaratishdagi mahorati, o‘ziga xos uslubi yoritib, yozuvchi badiiy-estetik olami ochib berildi.

Kalit so‘zlar: Badiiy tasvir, obraz, milliy ruh, psixologizm ona, ozodlik, erk tushunchasi, o‘zaro ta’sir, dialog, istiqlool sharofati, tarixiy voqelik, turkiylar birligi.

Jalon Jovliev nafaqat roman, balki hikoyachilikda ham bir qadar muvaffaqiyat qozonib, ushbu janrning ham imkoniyatlaridan keng foydalandi. U o‘zining ixcham teran ma’noli hikoyalari bilan mashxurdir. Uning “Stalinga maktublar”, “Mustabidning hasharotlari”, “Ayol” kabi hikoyalari vaqtli matbuot sahifalarida e’lon qilingan, 2022-yilda “Onam va koinot” nomli to‘plami nashr etilib, unda ko‘plab hikoyalar jamlandi. To‘plamdan “Jilovdoshim”, “Buxoro, Buxoro, Buxoro”, “Ozodlik “, “Ikki yosh uchrashuvi”, “Lobar, Lobar, Lobarim mening...”, “Onam va koinot” kabi teran mazmunli hikoyalari va yaqin o‘tmishda ro‘y berayotgan urush tasvirlangan, urushning haqiqiy dahshatini, oddiy tinch aholi hayotida qoldirgan fojeali izlari, urush qaysi zamonda kimlar orasida bo‘lishidanunda eng ko‘p jabr ko‘ruvchi tinch aholi ekanligini inson qalbini jumbushga keltiradigan ixcham “Urush yozgan hikoya”, “Akifning onasi” kabi hikoyalari ham joy olgan. Javlon Jovliev hikoyalarida qahramonlar ruhiyati, ruhiy tavsir, obrazlar



ichki dunyosi o‘zining teran ifodasini topgan. Ayniqsa “Elbek”, “Ko‘k, oq va ola kabutarlar” “Onam va koinot” va boshqa ko‘plab hikoyalarda ayol ruhiyati, o‘zbek onasining ruhiy qiyofasi nihoyatda ta’sirli berilgan. Ushbu hikoyalarning har birida o‘zgacha syujet tanlangan bo‘lsa-da, ammo qalamga olingan ruhiyat tasviri, ayol ruhiyatining fojeaviy qiyofasi sababli umumiylik kasb etadi.

“Nimani ko‘rsang, nimani qalban haqqoniy va samimiy his qilsang, shuni yozish kerak, - deydi Chexov. – Mendan goho u yoki bu hikoyangizda nima deyishni ko‘zlagansiz, deb so‘rashadi. Bunaqa savollarga men javob bermayman. Mening vazifam – yozish... Jonli, hayotiy obrazlar fikrni shakllantiradi, fikr o‘zi esa hech vaqt obraz yaratmaydi” (J.Jovliyev). Adib yozar ekan avval tug‘ilgan fikrga moslab obraz yaratmaydi. U faqat samimiy va haqqoniy his qilgan narsalarini yozadi. Fikrga kelishni esa kitobxonga qoldiradi.

“Elbek” hikoyasini yozar ekan, adib yaqin tarixdagi xalqimizning sho‘r peshonasi, paxta dalalarida tugab bitgan ayol-qizlarning go‘zalligi-yu, yoshligi, bolalarning paxtaga almashilgan ilmi-yu, yuksalishlari, bularning barchasi hikoyada aks ettirilgan. Paxta frontida farzandidan ayrilgan onaning cheksiz iztirobi, umrbod bitmaydigan yarasi hikoyada Elbekning onasi obrazida gavdalandirilgan: “ – Hoy Elbek ... Ko‘ksimda “Qahramon ona” ordeni bor, menam qahramon bo‘ldimmi, bolam... Paxtani oltin deb, minbarni zamon deb seni qaqshatdimmi bolam... ko‘ksimdagi bu ordenni to‘yingda eshakka taqa qilay, eshakka taqa bo‘lmasa, lo‘liga sovg‘a qilay...”. Hikoyada enaning katta o‘g‘li Tesha obrazi bo‘lib, uning nutqi orqali onaning 10 ta bola tuqqani, Elbek kenja farzandi ekani, paxta dalasida o‘lib qolgani, lekin, qahramon ona bitti bolaga aza tutib o‘tirmasligi kerakligi kabi nihoyatda ta’sirli haqiqatlar ochib berilgan. Asardagi ona obrazi ruhiyatidagi g‘am-qayg‘u, iztirob hatti-harakatlari, gapso‘zlari orqali namoyon bo‘ladi. Bu adabiyotshunoslikda psixologizmning dinamik printsiptiga to‘g‘ri keladi. “Dinamik printsiptip – romanda yozuvchi uchun ichki dunyoning – ruhning kechinmalarini tashqi qiyofa, holat va xatti-harakatlarda



ko‘rinishini tasvirlash. Hissiyotning dinamik ravishda, (bosqichma-bosqich) rivojlanib borishi. Rivojlangan sayin qahramon qalbi o‘zining borlig‘ini namoyon etadi”.¹

“Psixologizmda klassik adabiyotning uzoq yillik tarixiy hayoti sirlaridan biri yashirin: inson qalbi haqida gapirar ekan, u har bir kitobxon bilan uning aynan o‘zi haqida gaplashadi”.² Psixologizm har qanday prinsip yoki qonuniyatlarga to‘g‘ri kelmasin, avvalo yozuvchining mahorati badiiy asar kuchini baholaydi. Aks holda ruhiy tasvirning bir necha prinsplaridan foydalangan holda ham no‘noq asar paydo bo‘lishi mumkin. Mustaqillik davri yosh nosirlaridan hisoblanmish Javlon Jovliyev hikoyalarida inson ruhiyati, uning iztiroblari, ruhiy kechinmalari teran tasvirlangan. Qahramonlar ruhiyati, obrazlar ifodasi, mustaqillik davri kishisi nuqtai nazaridan qarab bitilganligi bois bugungi kun kitobxonlarining ruhiy olamiga mos keladi.

Javlon Jovliyev hikoyalaridagi yana bir xususiyat uning asarlari jadidlar boshlagan turkiy birlik g‘oyasi bilan oziqlanganligidir. Nosir o‘z suxbatlarining birida “Cho‘lponning “Kecha va Kunduz” romani mening bolaligim va bugunim, aniq bilamanki ertam ham”³ deb aytib o‘tgan. Bundan kelib chiqish mumkunki yozuvchi asarlarida Cho‘lpon nafasini sezish mumkin. Yozuvchining “Jilovdoshim” hikoyasida aynan shu mavzu qalamga olingan. “Raddi balo bo‘lsin Turkistonga” degan duo bilan boshlangan hikoyada barcha turkiy xalqlarning ildizi bir ekanligi, turkiy xalqlar boshiga kelgan balolar, “afrosiyob” kabi milliy qahramonlar nomini tarixdan o‘chirishga harakatlar, o‘z tariximiz malumotlarini “chin” manbalaridan topishimiz, turkiy xalqlarning yer yuzining turli joylariga tarqab ketganligi, sho‘ro davrida turkistonning “milliy chegaralanish” tadbirini boshdan o‘tkazganligi, Turkiston, ya’ni turkiy birlik g‘oyasi obrazli tarzda ochib berilgan. Nosir hikoyada o‘quvchiga JILOVDOSHIM deb murojat qiladi.

¹ Умуров Х. Адабиётшунослик назарияси. – Тошкент, Халқ мероси нашриёти, 2004. – Б.50-52.

² Есин А.Б. Психологизм русской классической литературы. – М.: Просвещение, 1988. – С.176.

³ <https://kun.uz/uz/25127680>



“Qadim kitoblarda turkiy xalqlarning nomlari o‘zlari kabi ko‘p va xo‘p yozilgan... Nomlar va bo‘linishlar borasida biror xalq turklarga teng kelolmasa kerak. Ko‘piga hozir tilimiz ham kelishmaydi... Qipchoq, o‘g‘uz, yemak, boshqird, basmil, qayi, yabg‘u, tatar, qirg‘iz, chigil, tuxsi, yag‘mo, ug‘roq, charuq, chumil, uyg‘ur, tungtun, xitay... bo‘ldi, bo‘ldi... Ana ko‘rdingizmi, bu urug‘larni sanab adog‘iga yetib bo‘lmaydi... Ammo bari birdir, qo‘l va barmoqlar kabi, siz va men, tog‘ va buloq kabi. Hozir ularning nomi biroz o‘zgargan, Jilovdoshim, taqdirlar kabi xalqlarning tutumlari ham o‘zgarib turadi... “ ushbu jumalalarda yozuvchi turkiy qavmlarni qo‘l va barmoqlardek deya ta’riflaydi. “Ey Jilovdoshim, bu dunyo yaralibdiki, doim turklarning birlashishidan qo‘rqqanlar, qattiq cho‘chiganlar. Chunki ular birlashsa, har bir er Alp Er To‘ngga – millat qahramoniga yengib bolmas yo‘lbarsga aylanardi.” Shu sababli ham dunyo turklarning birlashishini hohlamaydi. “ Turk xalqlarini tarix zarvaraqlaridan o‘chirishga yoki ularni kamsitishga urunish har doim bo‘lgan, bundan kiyin ham bo‘ladiyov, jilovdoshim. ... turk urug‘lari birlashmasligi uchun katta kurash ketgan. Qancha qancha olimlar buning uchun uhlamay tunlar bosh qatirganlar. Bu mard elning mardligidan doim foydalanganlar. Hatto vaqt o‘tib Afrosiyob kabi milliy qahramonlarni tarixiy shaxs sifatida yo‘qotishga ham uringanlar. Bu zotni “tarixda bo‘lmagan”, “u – bir afsona”, “to‘qib chiqarilgan cho‘pchak” degan qarashlar shundan paydo bo‘lgan. Bu qarashlarni millat ongiga singdirmoq uchun yostiqlay-yostiqlay kitoblar yozilgan. ... biz milliy qahramonlarimizni juda arzon sotuvchi xalqmiz!” “...Jilovdoshim, xonliklarga bo‘ldilar bo‘lindik, bostirib kelishdi, bosildik... O‘g‘lonlar o‘ligi dushmanga ko‘rpacha bo‘ldi... Turonning uzun bo‘y keng yelkali yigitlari ustiga chiqib peshob to‘kdilar, biz esa notovon bir-birimizni kuzatdik...

Turkistonning eshiklari oltindan edi, amirlar uni qo‘porib, tualarga joylab qochib ketdi. Bedarvoza qoldi Turkiston! Ammo bilmadilar, Jilovdoshim, vatansiz o‘lish – ikki marta o‘lish ekanini... Bilmadilar, bilmaydilar, Jilovdoshim, bilmaydilar...” ushbu parcha orqali Turkiston boshiga kelgan kunlar qanday ayanchli ekanini kuzatish, balki his qilish



mumkin. "... Turkistondan bir Alp Er To'ngga chiqib, bosilgan va toptalgan joylarning xunini talab qilishidan va birlashgan mustaqil davlat barpo qilishidan qo'rqib "milliy chegaralanish" tadbirini o'tkazdilar. Bunga ko'ra turkiston bo'laklarga bo'linib ketdi. Xuddi osmondan sochqi otganday dushmanning och itlariga shavqatsiz talandik."⁴ Hikoya so'ngingida yozuvchi shuncha xo'rliklar bilan ham Turkiston hali "katta yurakli" kishilarning ko'ksida yashashini, "...shunda ham bilib qo'y, tog'ning eng baland nuqtasiga chiqib har kun, har tong ming marta baqirib chorlayman Turkistonimni." Degan hitoblar bilan hikoyaning kulminatsiyasiga chiqadi. Bunday "yuragi katta" kishilar qatoriga yozuvchining o'zini bemalol qo'sha olamiz. Chunki turkiy birlik g'oyasi faqatgina bir hikoyada, bir epizodda eslanmaydi. Juda ko'plab asarlarida o'zini nomoyon etadi. Shu o'rinda yozuvchining romani bo'lmish "Qo'rqma" asaridan ham bir parcha:

"Qozoq, qirg'iz, o'zbek, tojik, Turkman, qoraqalpoq – bari bir onaning egiz farzandlari kabi, qonimiz va suyagimiz muqaddas Turkiston loyidan qorilgan"⁵

Javlon Jovliyev hikoyachilikdagi mahoratini dialoglardan unumli foydalanishda ham ko'rishimiz mumkin. Hatto uning ijodida "So'yla, daryo, so'yla" nomli dialog hikoyani ham uchratamiz. Hikoyada hech qanday muallif gapi yo'q. O'quvchi o'zini huddi sahna asari tomoshasida o'tirgandek his qiladi. Hikoya qahramonlari Polvon, Oynur va Obod. Hikoya daryoni guvoh qilib berilgan va kiyinchalik vafo qilinmagan vada, muhabbat, do'stlik tuyg'ulari haqida. Hikoyada to'xtamlardan ham unumli foydalanilgan.

" – oy ham ketyapti, umr o'tyapti... Savolingga javob beraymi?

- Ertaroq aytsang bo'lardi-ku...

- Yo'q, bugun daryo tilga kirdi... Daryo seni so'roq qilish uchun chaqirdi-ku!

⁴ Жовлиев Ж. "Онам ва коинот. Ҳикоялар. – Тошкент. "Anorbooks", 2022. – 67-6

⁵ Жовлиев Ж. "Қўрқма. Раман. – Тошкент. "Asaxiy books", 2021. – 145-6



- Irodang metin ekan. Qish kunlari urib ko‘chaga chiqarib qo‘yardim. Saratonda issiqda somonga ko‘mib qo‘yardim. Chidading, joning qattiq ekan...
- Qo‘rqapman... Ilk bahor g‘unchasini ko‘rganmisiz. Quyoshdan-da uyaladi bechora. To‘xtang! Sizga aytib ketay...
- Iflos...
- ...
- Allaqachon seni, sen itni, seni, seni...
- ...
- Oynur, Oynur
- ...
- Nega jim bo‘lib qolding?
- Oynur!
- Oynur!
- Nahot kulishimdan tanimadingiz?
- Kulishingni sedan chiqarib qo‘yibman.
- Bolalarim oldida kulardim-ku...
- Seni suyganman... shuning uchun umrim kuydi, yondi shubhalar ichra...”⁶

Yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek yozuvchi asarning mag‘zini aynan dialogga joylaydi. Bu uslubni deyarli barcha hikoyalarida ham uchratishimiz mumkin. Yozuvchining ozodlik hikoyasiga e‘tibor beramiz. Ushbu hikoyada ham aynan kulminatsion nuqtalar dialog orqali berilganligi e‘tiborimizni tortadi:

- “Tog‘a, saharlab kelganim uchun uzr! Kech qolishdan qo‘rqdim.
- Yozib bo‘ldingmi?
- Mana...
- O‘o‘h-ho‘o‘o‘, asar yozib tashlabsan-ku!

⁶ Jovliyev J. Lobar, Lobar, Lobarim mening. Hikoyalar. – Toshkent. “pharos ambition”, 2023. – 101-b



- Tog‘a, kuyovingiz chiqadimi?
- Yaxshi niyat qil, chiqadi...”⁷

Biz asosan dialoglarni yumoristik ruhdagi asarlarda uchratishga o‘rganib qolganmiz. Aynan epik asardagi dramatik sahnalarda dialoglardan unumli foydalanishni yozuvchining yutug‘i deb olishimiz mumkin.

“Adabiyot maydonida hech qachon birovning oti bilan chopib bo‘lmaydi” (J. Jovliyev) degan naqlni yodga oladigan bo‘lsak, adabiyot har bir yozuvchidan o‘z uslubi bo‘lishini talab qiladi. Ammo o‘zidan oldingi asarlarni o‘rganmasdan turib ham yaxshi yozuvchi bo‘lish qiyin masala. Javlon Jovliyev jahon adabiyotidan Chehovni ko‘p o‘qiganligini bot-bot ta’kidlaydi. O‘zbek adabiyotidan uning hikoyalarida jadid namoyondalarining ta’sirini sezish qiyin emas. Jummalarni qisqa, lo‘nda tuzish ba’zi takrorlardan va yuklamalardan o‘rinli foydalanish xususiyatini Tog‘ay Murod asarlarida kuzatishimiz mumkin. Peyzaj, umuman hikoyachilikdagi saboqlarni Shukur Xolmirzayevdan olgan deyishimiz mumkin. Chunki o‘zining suxbatlaridan birida: “Shukur Xolmirzayev bilan uchrashish nasib etmagan bo‘lsa-da, u mening ilk ustozim. Ayrim hikoyalari tushimga kirib chiqadi. O‘zini ko‘rmagan bo‘lsamda menga asarlari orqali ko‘p narsani o‘rgatgan” deya takidlaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Javlon Jovliyev hikoyalarida kuylangan ozodlik, erk, vatan, millat tuyg‘ulari; xalqning qora chirkin kunlari tasviri barcha-barchasida yozuvchining hech kimga o‘xshamagan ifoda uslubi, obrazlar tizimi yotadi. Insonga, jumladan, yoshlarga men o‘zi nima qilyapman? Qaysi tomonga ketyapman? O‘z burchimni ado etyapmanmi, degan haqli savollarni berishga yana bir bor undaydi.

⁷ Jovliyev J. Lobar, Lobar, Lobarim mening. Hikoyalar. – Toshkent. “pharos ambition”, 2023. – 21-b



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Умуров Ҳ. Адабиётшунослик назарияси. – Тошкент, Халқ мероси нашриёти, 2004.
2. Есин А.Б. Психологизм русской классической литературы. – М.: Просвещение, 1988.
3. Жовлиев Ж. “Онам ва коинот. Ҳикоялар. – Тошкент. “Anorbooks”, 2022.
4. Жовлиев Ж. “Қўрқма. Раман. – Тошкент. “Asaxiy books”, 2021.
5. Jovliyev J. Lobar, Lobar, Lobarim mening. Hikoyalar. – Toshkent. “pharos ambition”, 2023.
6. <https://kun.uz/uz/25127680>